

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA
INNOVATSION YONDASHUV VA
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO‘PLAMI

Samarqand shahri, 2025-yil 12-13-may

Samarqand – 2025

Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuv va zamonaviy tendensiyalar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: 2025. – 288 bet.

“Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuv va zamonaviy tendensiyalar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallarida xorijiy tillarni o‘qitish sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, tilshunoslik sohasida mavjud muammolar va ularning yechimlari, mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tajribalar va ularning o‘rganilishi, xorijiy tillarni o‘qitish muammolari sohasida jahon talablariga mos innovatsion metodlar va texnologiyalarning qo‘llanilishi kabi masalalar yoritilgan. Ushbu to‘plam Respublika miqyosida xorijiy tillarni o‘rganish va ularni samarali o‘qitish sohasida professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish imkonini beradi va bu boradagi izlanishlar uchun tadqiqot manbasi sifatida xizmat qiladi.

Bosh muharrir:
A.A.Xasanov

Mas’ul muharrir:
B.S.Abdurazoqov

Tahrir hay’ati a’zolari:

I.B.Utayeva	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Tillar fakulteti dekani, p.f.f.d. (PhD)	U.E.Qurbonov	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchi, f.f.f.d. (PhD)
B.S.Abdurazoqov	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD)	Sh.F.Kutbiddinova	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrası assistenti
I.H.Yoqubov	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD)	G.Sh.Dusmamatova	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrası assistenti
T.B.Mavlyanova	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Rus tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD)	Z.F.Aktamova	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrası assistenti
A.A.Xasanov	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD)	M.M.Orziqulova	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrası assistenti

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

3. Brown, H. D. (2007). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Education.
4. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon Press.
5. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford University Press.
6. Ellis, R. (2008). *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford University Press.
7. CEFR (2018). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. Council of Europe.
8. Karimova, D. (2020). "Innovatsion texnologiyalar asosida xorijiy tillarni o'qitishning samaradorligi". *Til va adabiyot ta'limi*, 2(4), 45–49.
9. Tuxliyeva, S. A. (2021). "Xorijiy tilni o'qitishda CLIL metodikasining ahamiyati". *Pedagogik ta'lim muammolari*, 1(3), 60–64.
10. Willis, J. (1996). *A Framework for Task-Based Learning*. Longman.

OLAMNING PAREMIOLOGIK MANZARASINING SHAKLLANISHI

Sodiqov L.M.

SamDChTI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillari maqol-paremiologik birliklarining olamning paremiologik manzarasini shakllanishidagi ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Maqol-paremiologik birliklar xalq og'zaki ijodida turg'un shaklda tayyor holda qo'llanilib, bir jumla bilan katta ma'no anglashilishi misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, paremiologik birliklar, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik, klishe-frazeologik birliklar, klishe-paremiologik birliklar.

Til antropotsentrikligi hozirgi zamon tilshunosligining markaziy munozara maydonidir. Bunda odam bilan bog'liq bo'lgan barcha jihatlar, uning fikr doirasi, amaliy va ijtimoiy-ma'naviy faoliyatining har xil turlari inobatga olingan holda turli til aspektlarida inson omili tahlil qilinadi. Odamning uni o'rab turgan borliq haqidagi bilimlariga kelsak, ular diniy-mifologik, falsafiy, konnotativ-baholashlarni o'zida mujassamlashtirgan olamning lisoniy manzarasi o'ta murakkab tuzilishga ega ekanligidan dalolat beradi.

Natijada uning nusxasi emas, balki borliqning belgisi, timsoli paydo bo'ladi, harakat rivojlanadi. Bunday vaziyatda obrazli so'zlar, frazeologik birliklar va paremiologik birliklarning tilda paydo bo'lishi va nutqda faollashuvida muhim o'rin tutadi. Agar obyektiv borliq bo'lmaganida, bilish haqiqiy fantaziya bo'lib qoladi. Shu sabab, aytishimiz mumkinki, aniq bir ko'rinish, manzara ongimizda tasavvurni uyg'otadi va uning rasmi chiziladi.

Har bir shaxsning o'ziga xos his qilish, ko'rish, sezish qobiliyatlari bo'lib, bu uning atrof-borliqni, narsa-predmetlarni hissiy qabul qilishida muhim rol o'ynaydi. Narsa-predmetlarning ramzlari, timsollari, ko'rinishlari biz uchun faqatgina ular hissiy ma'noga ega bo'lganligi sababli mavjuddir. Nomlash (atash) jarayonida asosiy o'rinni so'zga beramiz, qolaversa, kam miqdorda bo'lsada, so'z birikmalari va gaplar ham atash imkoniyatlariga egadir. So'zlar narsa-predmetni atab turib uni ma'lum bir nomlanish guruhiga kiritadi va boshqa narsa-predmetlar guruhidan ajratib farqlab beradi. Shuning bilan so'zning jamlovchi xususiyati namoyon bo'ladi. Tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, tilda bo'ladigan barcha o'zgarishlar til rivojlanishining ma'lum bir an'analari natijasidir. Til o'z taraqqiyotining har bir onida (qadamida) bir-biriga bog'liq bo'lgan tovush tizimi fikrlash bilan chambarchas bog'langan jonli tizimni ifodalaydi.

Inson ongida narsa-predmetlar haqidagi bilimlar asosida ularning umumlashgan va turg'un timsoli, obrazlari shakllanadi. O'zbek va nemis tillaridagi maqol-paremiologik birliklarni qiyoslang: "Ein dummer Kopf macht den Füßen Arbeit" (SPWL, 324) – "Ahmoq oyog'idan horiydi" (O'XM, 125); "Auch die Wände haben Ohren" (SPWL, 437) – "Devorning sichqoni bor, Sichqonning qulog'i bor" (O'XM, 427);

Xalq ogʻzaki ijodi sohasida paremiotizim tubdan oʻrganilgan. Hozirgacha paremiologik birliklar tilshunoslik, madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik ilmiy izlanishlariga faqat kamdan kam hollarda jalb etilgan. Shu bilan birga paremiologik diskursida deyarli barcha lisoniy hodisa va jarayonlar kuzatiladi. Shuning uchun bu sohadagi lingvistik kuzatishlar, shubhasiz, umumiy va amaliy tilshunoslikdagi har xil masalalarni, muammoli vaziyatlarni yechimi uchun xizmat qiladi. Bunda asl paremiologik birliklar, oʻzlashtirilgan paremiyalar, hozirgi zamon paremiyalari, arxaik maqollar, faol va passiv maqollar, dublet maqollar va boshqalar oʻz aksini topgan.

Paremiologiya tilning oʻz rivojlanish tarixini oʻrganish uchun ham muhimdir, chunki har qanday adabiy til paremiologik birliklarining katta qismi aynan umumxalq leksikasini, soʻz leksemalarini oʻz tarkibida komponent sifatida faollashtirgan. Masalan: “Olmos yerda qolmas” (OʻXM, 234); “Baxilning yerida sunbul koʻkarmas” (OʻXM, 169); “Daraxt yer ziynati, Kiyim er ziynati” (OʻXM, 177).

Xalq madaniy taraqqiyotida paremiologik shakllarda son soʻz turkumi ishtirok etgan lisoniy-madaniy omilni inobatga olish oʻta muhimdir. Masalan, nemis tilida: “Aller guten Dinge sind drei” (SPWL, 107); “Es hat alles zwei Seiten” (SPWL, 30); “Zehn alte Weiber, elf Krankheiten” (SPWL, 35); oʻzbek tilida: “Ikki qoʻl qilgan ishni, Bir qoʻl qilolmas” (OʻXM, 20); “Ming soʻzdan bir ish yaxshi” (OʻXM, 41); “Oʻgʻrining oʻzi – bitta, koʻzi – yuzta” (OʻXM, 65). Bunday PBlarning tarjimalarida noqulayliklar yuzaga keladi. Masalan: “Yetti oʻlchab bir kes” (OʻXM, 458); “Ikki oʻn besh – bir oʻttiz” (OʻXM, 144); “Ikki tentak bir boʻlsa, sogʻ odamday gaplashar” (OʻXM, 144) va hokazolar.

Bunday etimologik maʼlumotlarning yetishmasligi lugʻatshunoslik amaliyotiga va tarjimashunoslikda oʻz soʻzini aytadi, chunki dunyo xalqlari madaniy merosining butun tarixiy koʻlami hisobga olinmaydi. Bu esa paremiografiya rivojiga taʼsir koʻrsatadi. Bundan tashqari bir xalqning PBlari psixolingvistikasi masalasini hal qilish boshqa tilda soʻzlashuvchilar uchun juda muhimdir. Shu bilan birga, dunyoning barcha tillarida paremiologik birliklarda aks etgan inson tafakkurining universal xususiyatlari mavjudligi hayratlanarlidir. Ular xalqning har qanday etnik mansubligidan qatʼiy nazar psixolingvistik universalisiya shaklida boʻladi. Masalan: “Temirchi taqaga yolchimas, Boʻzchi – belboqqa” (OʻXM, 198).

Tilshunoslik tarixida ham vaqti-vaqti bilan yaqinroq yoki uzoqroq davrlardagi gʻoya, fikr-mulohazalarga qaytish kuzatiladi. Tilshunoslikning qayta koʻrib chiqish va aniqlik kiritishni talab qiladigan masalalaridan biri, bu – klishe masalasidir [Yaxshiyev 2025, 341].

Klishe-frazalar bu turgʻun soʻz birikmalari boʻlib, ular nutqda tayyor holda qoʻllaniladi, bular (klishe-frazeologik birliklar va klishe-paremiologik birliklar). Masalan, nemis tilida keng ishlatiladigan maqol koʻrinishidagi klishe hosilalarga eʼtibor qaratamiz. Masalan: “Lügen haben kurze Beine” (SPWL, 68) – “Yolgʻonning umri qisqa” (OʻXM, 210); “Was man nicht im Kopfe hat, muß man in den Beinen haben” (SPWL, 69) – “Ahmoq oyogʻidan horiydi” (OʻXM, 125); “Auge um Auge, Zahn um Zahn” (SWPL, 690) – “Qonga-qon, jonga jon” (OʻXM, 174) va boshqalar.

Bunday paremiologik birliklar oʻzlarining taʼsirchanligi, jonliligi, ixchamligi, qisqaligi va loʻndaligi bilan ajralib turadi. Bu turdagi til ifoda vositalariga aynan paremiologik birliklar mansubdir. Bular oʻtkir, taʼsirchan, chuqur maʼnoli iboralaridir. Odatda ular shaklan bir maromga keltirilgan ibratli, nasihatomez maʼnoni ifodalab, hayotning har xil koʻrinishlarini voqea-hodisalarini tipiklashtiradi, umumlashtiradi va oʻziga xos shakllarda ifodalaydi, kishilarning baʼzi xarakter-xususiyatlariga ishora qiladi. Voqea-hodisalarining xususiyatlarini va koʻrinishlarini ifodalaydi. Masalan: “Quruq qoshiq ogʻiz yirtar” (OʻXM, 432); “Ota soʻzi – aql koʻzi” (OʻXM, 430). Maqollar muallifini aniqlashning iloji boʻlmaydi, chunki bular ogʻzaki, qisqa, chuqur iboralar boʻlib, ular xalq ogʻzaki ijodiga mansubdir. Bunday turdagi iboralar til sohiblarining qariyb barchasiga taniqlidir va ular asrlar davomida ogʻizdan-ogʻizga oʻtib soʻzlashuv nutqida keng tarqalgandir. Masalan: “Es ist nicht jeder Vogel ein Falke” (SPWL, 641) – “Oʻrdak oʻziga oro bersa ham, oqqush boʻlolmas” (OʻXM, 181); “Ein alter Baum ist – schwer zu verpflanzen” (SPWL, 162) – “Egri bitgan daraxt toʻgʻri oʻsmas” (OʻXM, 48).

Paremiologik birliklar eski turk yozuvi uchun ham xarakterlidir. Masalan, Toʻnyuquq sharafiga bitilgan yozuvlarda eramizning 712-816 yillarida ham paremiologik birliklarni uchratish mumkin. Masalan, “Yupqani taxlash (qatlash, bukush) oson” yoki “Uyat oʻlimdan qattiq” (OʻXM,

322). Aytishimiz kerakki (mumkinki), o'zbek xalqining boy xalq og'zaki ijod manbalarida, dostonlarida hali ko'p ochilmagan, erishilmagan qirralar yashirinib yotibdi [Jo'raqulov 2024, 715]. Demak, paremiologik-klishelar inson tomonidan anglash yoxud anglanish mumkin bo'lgan voqelikni mayda-chuyda detallari bilan nominativ va pragmatik tarzda to'liq takrorlay olmaydigan tilning leksik tizimidagi bo'shliqlarni to'ldiradi.

Shunday qilib, klishe hosilalar (avvalombor maqol, matal, paremiologik birliklar) til birliklari orasida semantik jihatdan alohida turdagi milliy-madaniy komponentni shakllantirib, ko'pincha tilda obyektlar, xususiyatlar, holatlar, jarayonlar, vaziyatlar va boshqalarning yagona belgilari, ifodalovchilari sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beyer Horst und Annelies. Sprichwörterlexikon: Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen Sammlungen vom 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. - 2., unveränderte Auflage. - Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985. - 712 S.
2. Jo'raqulov A.R. Paremiologik birliklarning lingvomadaniy jihatlari // Advanced Methods of Ensuring Quality of Education: Problems and Solutions Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarqand: SamDChTI, 2024. – 715-717 b.
3. O'zbek xalq maqollari. - Toshkent: Sharq, 2005. - 512 b.
4. Yaxshiyev A.A. Colloquial Speech as a Functional Variety of Literary Language // Spanish Journal of Innovation and Integrity. ISSN2792-8268 / Volume-41, 2025. – P. 340-346.